

**MEN TANLAGAN KASBNI EGALLASHDA KELGUSI REJALARIM**

**Raxmonova Shohidaxon Abdujalilovna**

*Denov tumanidagi 52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Toshtemirova Maftuna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasb tanlashga yo'naltirish texnologiyasi, kasb professiogrammasi, hozirgi kundagi psixogrammaning turli talqinlari, kasbiy tavsiyaning noaniqligini psixologik tahlil ustida takomillashtirish, kasbga doir shaxsiy reja tuzish, kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash va o'qituvchilik kasbi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb professiogramma, psixologik tahlil, kasbiy reja, kasbiy qiziqish, psixogramma.

**KIRISH**

Professiogramma - bu shaxsning psixologik xususiyatlariga asoslangan qisqacha professional tavsif. Misol uchun, agar mijozning harakatlari tartibsiz va tartibsiz bo'lsa, mijoz mutaxassisi mijozlar bilan ishlay olmaydi. Tez fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmagan odam haydovchilikka qabul qilinmaydi.

Quyida kompyuter tizimlari bo'yicha texnik va agronomlar uchun professiogrammalar keltirilgan.

Kompyuter tizimlari bo'yicha mutaxassis

Kasb haqida umumiy ma'lumot: tarmoq tizimini tashkil etish va ta'minlash; operatsion tizim va dasturiy ta'minotning ishlashini nazorat qilish; dasturiy ta'minotni o'rnatish va sozlash; tarmoqning ish holatini ta'minlash; tarmoqni qo'llab- quvvatlash; asboblarni va jihozlarni o'rnatish va ta'mirlash.

Kasb turi: odam - belgi tizimi.

Bilim, ko'nikma, malaka: matematika, fizika, informatika va axborot texnologiyalari, iqtisodiyot asoslari, xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilish va ularga rioya qilish;

barcha turdagi dasturiy tizimlar haqida tushunchaga ega bo'lish; dasturiy ta'minot tizimini yig'ish; dasturiy ta'minot tizimini o'rnatish va sozlash; profilaktika va texnik xizmat ko'rsatish; tarmoq ishini boshqarish; tarmoq tizimlarini qayta tiklash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Muhim kasbiy sifatlar: mantiqiy fikrlash; yuqori rivojlangan diqqat e'tibor; mas'uliyat; tez qaror qabul qilish qobiliyati; yaxshi va tezkor xotira; matematik qobiliyat; qo'l barmoqlari motorikasining rivojlanganligi; tasavvurning rivojlanganligi; diqqatning tez ko'chishi; yuqori darajada rivojlangan texnik qobiliyat.

Shaxsiy fazilatlar: diqqatni jamlay olish; tizimli ish bajara olish; jismo niy chidamlilik; tartiblilik; uzoq o'tirib ishlay olish; javobgarlilik; puxtalik; xushmuomalalik.

Kasb tanlashda vaqt muhim omil hisoblanadi. Qiziqish va qobiliyatimizni bilish uchun ajratilgan vaqt katta ahamiyatga ega. O'quvchi kasb tanlash uchun taxminiy reja ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Rejada taxminiy muddatlar belgilanib, belgilangan oxirgi muddat o'quvchi uchun qat'iy chegara bo'lib xizmat qilishi kerak. Har qanday qiziqish va qobiliyatni rivojlantirmasak va unga vaqt-vaqti bilan murojaat etib turmasak, ular sekin-astalik bilan yo'qolib borish xusu siyatiga ega.

Natijalar:

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ularning qiziqishlari, moyilliklari, layoqatlari hamda shakllangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Bu jarayonda ular xalq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarga tegishli kasblar va ularga ehtiyoj lar, shuningdek, mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talablari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya ishlarining ajralmas qismidir.

Ma'lumki, barcha kasb-hunarlarni, eng avvalo, o'qituvchilar o'rgatadilar. Birinchi darsni ham o'qituvchi beradi. Binobarin, barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi juda sharaflil va mas'uliyatli kasb hisoblanadi.

O'qituvchi jamiyatning yosh avlodni tarbiyalashdagi ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarning mehnat ta'lim darslarida olgan bilimlari, shakllangan ko'nikma va malakalari ularda mehnat qilishga umumiy tayyorgarlikni, xalq xo'jaligining aniq bir sohasida qo'llanishi vazifa qilib qo'yishi lozim. Bundan tashqari boshqa fan o'qituvchilari ham o'rganilayotgan mavzu dasturlarini o'zgartirmasdan, ya'ni mantiqiy ketma- ketligiga ta'sir qilmasdan, ushbu fan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni mehnat jarayonlari, mehnat turlari ko'rinishlari va texnologiyasi bilan tanishtirib borishlari, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, Respublikamizning iqtisodiy potensialini ochib berishlari lozim.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarning jamiyatimizda o'z o'rnini topishlariga katta yordam beradi. Bu jarayonda mintaqaviy kasblarni targ'ib qilish bilan birgalikda, o'quvchilarga kasblar to'g'risida ma'lumot berish, konsultatsiyalar o'tkazishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda kasbga yo'naltirish bo'yicha ta'lim muassasalarida psixologlarning, maktab pedagogik jamoasining vazifalarini, kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirishda ham katta ahamiyat o'ynaydi. Yoshlarga ta'lim –tarbiya beruvchi o'qituvchi, ustoz, murabbiy, ta'lim xodim, mutaxassis, rahbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar sohibi bo'lishi lozim. Darhaqiqat o'quvchi yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashni, uni o'rganish, malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga talim- tarbiya beruvchilarning

ma'lakali mutaxassis bo'lib yetishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviyasi axloqiy fazilati bilimda maxorati mehnat sevarligi fidoiyligi bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy- madaniy kamoloti muhim ahamatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati ham alohida o'rin tutadi. Zero mutaxassis xodimning maxorati yoki kasb madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Pedagog kadrlarni kasb mahoratini oshirishni, kasb madaniyatini yuksaltirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun esa o'quv tarbiya muassasalarida o'qituvchining kasb mahorati va kasb madaniyati haqida tez-tez kengash va suhbatlar o'tkazib turish ma'ruzalar o'qish foydadan holi bo'lmaydi. O'qituvchilar zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyati va bilimlarini nazorat qilish va baholash, xatolarini tahlil qilish, o'ziga o'qituvchilik sifatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini qayta tayyorlash va tarbiyalash imkoniyatlariga duch keladi. Hozirgi vaqtda ta'lim- tarbiya ishi nafaqat vatanimiz kelajagi bo'lishi yoshlar hayotida, balki har bir kishi faoliyatida, umuman jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tizimda o'ta ahamiyatlidir. Ta'limtarbiyasiz kelajakda o'z samaralarini beruvchi islohot yo'q. Axloq va madaniyatni yuksaltiruvchi vosita ta'lim- tarbiyadir madaniyatsizlik esa illat. Ijtimoiy hayotni takomillashtirish uchun insonning o'zi axloqiy jihatdan kamol topishi lozim inson butun hayoti orqali butun umri mobaynida tarbiyalanadi.

Darhaqiqat, o'qituvchi chuqur bilimga ega bo'lmasa, o'z kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirishga intilmaguncha, yaxshi o'qituvchi bo'la olmaydi. Zero, davlatimiz istiqboli, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan barcha islohotlarning ijobiy hal etilishi ko'p ming yillik intellektual mehnat samarasidir. Binobarin, bugungi mustaqillik davrida o'qituvchilik kasbiga e'tibor va ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar ham har xil. Zero, bugun O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyoga yuzlanib, bu borada o'qituvchining o'rni va ahamiyati alohida ekanini unutmasligimiz kerak.

Muhokama:

Kasb tanlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim: Kasb tanlash murakkab dinamik jarayondir. Demak, kasb tanlashda boshqa kasblarning paydo bo'lishi yoki yo'qolishi jarayonlarini hisobga olishimiz kerak;

Kasb tanlashda vaqt muammosi bor. Kasb-hunarni tan olish rejasini ishlab chiqish va ushbu rejaga rioya qilish orqali bu muammo bartaraf etiladi;

- kasb tanlashni jarayon sifatida o'ylash qo'yilgan maqsadga muvaffaqiyatli erishishga olib keladi;

- kasb tanlash jarayonini tasavvur qilish va uni jarayon sifatida shakllantirish bu jarayonni boshqarish imkonini beradi. Menejment siz xohlagan kasbni tanlashning kalitidir.

Majburiy amalga oshirilgan tanlov esa sizning qiziqishingiz va qobiliyatingizni e'tiborga olmaydi. Qiziqishingiz va qobiliyatlaringiz ham majburiy tanlovni «tan olmaydi». Ular doimo sizning fikringiz va xohishingizni boshqa

tomonga chorlab turaveradi. Natijada siz ikki «o‘t orasida» qolgan odam holatiga tushib qolishingiz mumkin, ya'ni doim ichki qarama-qarshiliklar sizni qiynab yuradi.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish joziki, kasb tanlash jarayoni cheksiz davom eta olmaydi, aks holda bunday jarayon sizni befarqlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun, siz kasb tanlash jarayonini yakunlash uchun vaqtni belgilab, oldindan reja tuzishingiz kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, yangi o‘quv yilining boshlanishi kasb tanlash jarayonini keyingi o‘quv yili boshlanishidan ancha oldin yakunlashni talab qiladi.

Agar biz o‘z vaqtida kasb tanlamasak, hayot biz uchun shunday tanlov qiladi. Ya'ni, raqobatda vaqt yo‘qotganimiz sababli, mehnat bozorida qanday ish taklif qilinsa, qabul qilishga majbur bo‘lamiz.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarimng kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
2. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta‘lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007
3. Mavlyanov A va boshq. Kasb xunar kollejlari mahsus fanlarni o‘qitish metodikasi “Tafakkur bo‘stoni” O‘quv qo‘llanma - T.: 2013. 137 b.
4. Abdukudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar pedagogikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.: O‘MKHTTKMO va UQT, 2008. - 240 b.
5. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. - T.: Fan, 2004.